



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA DEMOGRAFIK BASHORAT USULLARINI O'RGANISHNI TASHKIL QILISH

Haydarova Surayyo Abdualomovna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Аннотация:** *В данной статье рассмотрены об эффективных аспектах организации изучения методов демографического прогнозирования на уроках географии.*

**Ключевые слова:** *Население, демография, география, прогноз, метод, коэффициент.*

**Abstract:** *This article talks about the effective aspects of organizing the study of demographic forecasting methods in geography classes.*

**Key words:** *Population, demography, geography, prediction, method, coefficient.*

Yer yuzi aholisining ko'payishi haqidagi bashoratlar va umuman geografik bashoratlar haqida geografiya darslarida asosan yuqori sinf o'quvchilarga ma'lumot berish, uning xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki yuqori sinf oquvchilarda analitik fikrlashga, ma'lumotlardan xulosalar chiqarishga bo'lgan qiziqishlar kuchli bo'ladi. Binobarin 9-sinf "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" darslari va kollej, liseylarda o'tiladigan "Amaliy geografiya" darslarida turli geografik jarayonlar, jumladan dunyo aholisining demografik ko'rsatkichlari haqida bashoratlar qilish usullari bo'yicha ma'lumotlar va tushunchalar berish uslubi samarali dars uslublaridan biridir.


9-sinf "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" kursida dunyo aholisiga tegishli 3-mavzu "Jahon aholisi" deb ataladi va 3 ta paragrafdan tashkil topgan "Jahon aholisi soni va ko'payishi", "Aholining yosh, jinsiy, irqiy, etnik, diniy va hududiy tarkiblari", "Urbanizasiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi" mavzularidan iborat. Ushbu mavzularda jahon aholisining demografik ko'rsatkichlari, tarkibiy xususiyatlari, hududiy joylashuvi va boshqa xususiyatlari haqida izchil va keng ma'lumotlar berilgan. Jadvallar va diagrammalar orqali ko'rsatkichlar ko'rgazmali ifodalangan. Shunday jarayonlarning kelajakda qanday ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkinligi haqida o'qituvchi darslarni o'tish mobaynida o'quvchilar bilan fikrlashishiga barcha imkoniyatlar mavjud. Binobarin o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda aholining demografik rivojlanishi haqida to'liq tasavvur hosil qilish maqsadida turlicha uslublar qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarga aholining tabiiy ko'payish xususiyatlari, tarkibi va boshqa jihatlarini diagrammalar va chizmalar orqali ifodalash, ko'rgazmalar tayyorlash kabi topshiriqlar berish mumkin. O'quvchilarga aholi sonining kelajakdagi o'zgarishini oldindan hisoblab, bashorat qilish usullarini bayon qilish ularda kelajakka qiziqish, jarayonlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga intilish malakalarini shakllantiradi. Shunga ko'ra darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlar, shuningdek to'garak mashg'ulotlarida aholi soni o'zgarishini bashorat qilish



usullari bo'yicha ba'zi topshiriqlar berish foydadan holi emas. Demografik bashoratlarning asosiy va tushunarli usullarini o'quvchilarga iloji boricha sodda tarzda tushuntirish lozim, chunki statistik hisob-kitoblar murakkabligi bilan ajralib turadi. Quyida aholi ichidagi alohida yosh guruhlarida kelajakda qanday ko'rsatkichga ega bo'lishini bashorat qilish usuli bayon qilinadi:

Demografik bashorat qilish, ya'ni kelajakda aholi soni qancha bo'lishini oldindan hisoblash yosh guruhlaridagi o'zgarishlarni hisobga olishni taqozo etadi. Shunday usulni tanlash kerakki, bir vaqtning o'zida ham yosh va jins guruhlaridagi, ham tug'ilish va o'lim jarayonlaridagi o'zgarishlarni qamrab olishi kerak bo'ladi. Shunday usullardan biri "yosh surish" usulidir. Agar bu usulning umumiy tarzda ko'rib chiqilsa, oddiy misollarga tayanish kerak bo'ladi. Masalan, 17 yoshli o'spirinlarning 2023 yilda mamlakat bo'yicha nechta bo'lishi mumkinligini hisoblab ko'rish kerak. Ayni vaqtda ma'lumki mamlakatda 1250 ta 15 yoshli o'spirinlar bor. O'lim darajasi bo'yicha tuzatish kiritish uchun, bir yil davomida u yoki bu yosh guruhidagi o'lganlar ulushini bildiruvchi Rx koeffisientini kiritiladi. R15 ko'rsatkichi 15 yoshdan 16 yoshgacha oraliqda taxminan 0,887 ga teng deb olinadi. Bu ko'rsatkich o'lim tablialari orqali aniqlanadi. Masalan bunda 16 yoshgacha yashab qolganlar 15 yosh vaqtdagi soniga bo'linadi. Demak, bu ko'rsatkich 15 yoshli o'spirinlardan 16 yoshgacha 88,7% i yashab qolishini ko'rsatadi. 16 yoshdan 17 yoshgacha bu ko'rsatkich 0,868 ga teng bo'ladi. 15 yoshlilarning boshlang'ich miqdorini R15 ko'rsatkichiga ko'paytirish orqali 16 yoshlilarning miqdori aniqlanadi. Bundan keyingi ish 16 yoshlilarning hisobini R16 ko'rsatkichi yordamida 17 yoshlilarga o'tishini aniqlashdir. Bu holda 1250 ta 15 yoshli o'spirindan 16 yoshgacha 1109 tasi yashab qoladi, 17 yoshgacha esa, 963 ta o'spirin yashab qoladi. SHunday qilib 2020 yilda mamlakatda 963 ta 17 yoshli o'spirin yashaydi. Ko'rgazmalilik uchun yosh guruhlaridagi sonini Sx deb va Rx orqali yosh guruhlari oralig'idagi "surish koeffisienti", boshlang'ich baza sifatida 2022 yil olinadi. Shunda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi:

Demografik bashoratning "Yosh surish" usuli sxemasi



Bu o'rinda shuni tushuntirib o'tish kerakki, S0 15 yoshlilar soni, S1 16 yoshlilar soni, S2 17 yoshlilar sonini bildiradi. R0, R1, R2 lar shu yoshlar oralig'idagi yashab qolganlar koeffisientidir.

Shu tariqa barcha yosh guruhlarini, va shu yosh guruhlardagi jins strukturasi bo'yicha bashoratlar qilib borish mumkin.

Bundan tashqari darslarda va uyga vazifa sifatida o'quvchilarga demografik ko'rsatkich bo'yicha topshiriqlar berish mumkin:

1-masala. Agar yilning boshida shahar aholisining soni 50 000 kishi bo'lib, yillik tabiiy o'sish 20% ni, migrasiya saldosini +2800 kishini tashkil qilgan bo'lsa yil oxiridagi shahar aholisi sonini aniqlang. Javobi: 53 800 kishi

2-masala. Agar yil davomida tug'ilish 600 kishini, o'lim – 800, kirib keluvchilar soni 700 kishi, ketuvchilar soni 1200 kishini tashkil qilsa, shahar aholisi sonining o'zgarishini toping. Javobi: 700 kishiga kamayadi.

3-masala. Agar yil boshida mamlakat aholisi 10480 ming kishi bo'lib, yil davomida 112 ming kishi tug'ilgan va o'lim koeffitsienti 9,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxirida mamlakat aholisining soni qancha bo'lishini hisoblang. Javob: 10497 ming kishi.

Bunday masalalarni echish o'quvchilarda hodisaning kelajakda qanday vaziyat hosil qilishini ko'ra olishni o'rganadilar. Oddiy matematik misollarda aholining kelajakda miqdor o'zgarishlarigina emas, balki hududdagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning aksi mavjudligini ularga uqtirish kerak. Demografik bashorat usullarini o'quvchilarda geografik va demografik bilimlarning to'liq bo'lishi va dunyoqarashlarini kengaytirish, jamiyatda va dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarning mohiyatini anglab etishlari uchun o'rgatishni bosh maqsad qilib olish lozim. Bunday topshiriqlarni masalalar va mantiqiy echimlarga ega muammolar tarzida berish maqsadga muvofiq bo'lib, savollar mavjud holatga mos bo'lishi talab etiladi. O'quvchilarga o'zlari yashab turgan hududlar misolida demografik bashorat qilish va natijalardan kelib chiqadigan muammolar va ijobiy tomonlarga e'tibor berishni, ko'riladigan chora-tadbirlar haqida o'z fikr – mulohazalarni bildirishlarini rag'batlantirish kerak. Zero, qaysi hududda bo'lmasin, aholiga tegishli muammolar butun insoniyatga ta'aluqli hisoblanishini ular anglab etishlari lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). Журнал естественных наук, 1(1).

2. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. Архив Научных Публикаций JSPI.

3. Gapparov, A., Haydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. Архив Научных Публикаций JSPI.

4. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.



5. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).